



MILLIY QADRIYATLAR MEXANIZIMI

SamDCHTI Kechki fakultet tyutori  
Qarshiboyev Yorqin Abdug'offor o'g'li

**Annotasiya:** Qadriyat tushunchasi aksiologiyaga xos kategoriyadir. Qadriyatni aksiologik jihatdan tahlil qilinganda uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini ohib beradi. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalarning talab va tartiblarni va insonlarning ham qadrini ifodalash uchun ham ishlataladi.

**Аннотация:** Понятие ценности-категория, присущая аксиологии. При аксиологическом анализе ценности раскрывается возможность ее изучения как категории сущности, содержания, объективной основы, форм и свойств проявления. Категория ценности используется не только для обозначения экономической ценности предметов и вещей, но и для выражения ценности форм, состояний, требований и порядков вещей, событий, явлений действительности и людей, имеющих какое-то значение для общества и человека.

**Annotation:** The concept of value is a category specific to Axiology. When the value is analyzed axiologically, it reveals the possibility of studying its essence, content, objective basis, forms and features of manifestation as a Category. The value category is also used to express not only the economic value of objects and objects, but also the demand and order of forms, States, things, events, phenomena of reality of some importance to society and Man, and the value of people as well.

**Kalit so'zlar:** Qadriyat, milliy qadriyat, millat, aksiologiya, umumbashariy qadriyat, falsafiy tafakkur, dialektik aloqadorlik.

**Ключевые слова:** Ценность, национальная ценность, нация, аксиология, общечеловеческая ценность, философское мышление, диалектическая связь.

**Key words:** Value, national value, nation, axiology, universal value, philosophical thinking, dialectical connection.



Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy va ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan.<sup>14</sup>

Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadryatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi ya'ni qadr darajasiga ko'tariladi. Qadriyatlar ijtimoiy, tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega bo'lib, ular holat va xususiyatiga qarab mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruqlar faoliyati, xatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi. Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo'lishi mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar esa milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Bu kabi qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biz shu o'rda milliy qadriyat tushunchasiga to'xtalib o'tamiz, milliy qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan hudud va u bilan bog'liq tuyg'ular, millatning o'tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma'naviy meros bilan bog'liq qadriyatlar ham muhim o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiyoq bo'lib hisoblanai. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar

<sup>14</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>



bilan bog'lovchi xalqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, o'z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog'liq jihatlarni ham nazarda tutadi. Shuningdek, bu bog'liklik dialektik aloqadorlik natijasida saralanib qadriyat darajasiga ko'tariladi. Ya'ni ushubu fikr mulohazasiga ko'ra – "Jamiyatning har bir yangi davri avvalgiga qaraganda yuksakroq taraqqiy etib borar ekan, bu tendentsiya – obyektiv va dialektik harakatning natijasidir. Yangi falsafiy tafakkur o'tgan davr tajribasining eng yaxshilarini saralab oldi va jamiyatga tadbiq etib, keyingi bosqichga qadam tashladi. Inson ongli mavjudot sifatida narsa va hatti-harakatlarga oqilona yondashadi. Ularning foydali yoki zararli ekanligi aniq va ravshan bo'limguncha kuzatadi hamda muayyan xulosaga keladi",<sup>15</sup> - degan tushuncha orqali qiymat darajasi belgilanadi.

Millatni milliy qadriyatlarning obyekti va subyekti sifatida tushunish, u bilan bog'liq milliy qadriyatlар tizimini ilmiy tahlil qilish, millatning o'zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash imkonini beruvchi tushunchalar haqida faylasuf Qiyomiddin Nazarov fikrlari bilan bayon qilamiz, xususan, faylasuf milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayonida o'tmishdan kelajakka tomon harakatini tahlil qilishga imkon yaratadigan milliy qadriyatlар:

- kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi;
- kishilarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlananib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladi;
- moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishlari, kishilar uchun zaruriyat sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etishlari, ularga foyda keltirishlari ham mumkin;

<sup>15</sup> Boboqulova X.E. Milliy o'zlikni anglashdan milliy tiklanish sari ijtimoiy yuksalish. UzMU xabarlari. [1/11/1], 2023



– ijtimoiy rivojlanish jarayonida o‘zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o‘tadi, meros qoladi – deb, bir qator milliy qadriyatlarning obyektiv va subyektiv jihatlarini sanab o’tgan.<sup>16</sup>

Milliy qadriyatlar subyektiv mohiyati tug’ilib o’sgan obyektiv nuqta, yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog‘liqlikda shakllanadi. Ana shunday qadriyatlarning eng asosiysi tug‘ilgan vatan va ona yurtni sevish tuyg‘usi bilan uyg‘unlashadi. Bu tuyg‘ular vatanni sevish tuyg‘usi – inson tug‘ilib voyaga yetgan, u mansub bo‘lgan tarixiy birlikning o‘tmishi bilan bog‘langan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy muhitga va hududga nisbatan bo‘lgan muhabbatdir. Bu butun insoniyatga xos umumiy tuyg‘udir. Vatan tuyg‘usida kishilarning o‘zi mansub bo‘lgan tarixiy birlik shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hududga nisbatan ma’naviy qarzdorligi, burch va mas’uliyati bilan bog‘liq ijtimoiy tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. Vatan – ana shunday tuyg‘uni uyg‘ota olgani uchun ham qadriyatdir. Chunki “... Vatan deb ustida o‘tirganimiz oddiy bir tuproq emasdir,... ustida o‘tirganimiz tuproq uning yopinchig‘idir va u yoping‘ich bo‘lganligidan ham muqaddasdir”<sup>17</sup>. U hamma millat vakillari uchun xos, uni biror xalqda ko‘proq, boshqasida kamroq rivojlangan deya olmaymiz, aksincha, vatan tuyg‘usi muayyan tarixiy birlikni vujudga keltirgan va saqlab turadigan joyga nisbatan dunyoga kelgan tabiiy-ijtimoiy tuyg‘u bo‘lib, har qanday millatga mansub kishining tabiat bilan chambarchas bog‘lab turuvchi rishta va millat birligi hisoblanadi.

Shuningdek, “Millat qadriyatlarini asrashning falsafiy jihatlari” ifodasining izohi bir nechta tafsilotlarga bo‘lishi mumkin, chunki bu so‘zlar bir nechta mazmunlarni o‘z ichiga oladi. Ammo, umumiy ravishda, millat qadriyatlarini asrashning falsafiy jihatlari, bir nechta mazkur turlarga bo‘linishi mumkin:

“Millat qadriyatlarini asrashning falsafiy jihatlari” ifodasining izohi bir nechta tafsilotlarga bo‘lishi mumkin, chunki bu so‘zlar bir nechta mazmunlarni o‘z ichiga oladi. Ammo, umumiy ravishda, millat qadriyatlarini asrashning falsafiy jihatlari, bir nechta mazkur turlarga bo‘linishi mumkin:

<sup>16</sup> Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. “Faylasuflar jamiyati” Toshkent.: 2004. B.46

<sup>17</sup> Ziyo Ko‘kalp. Turkchilik asoslari // O‘zbegin. –T.: Vatan, 1992. 30-bet



1. Modernizatsiya va milliy qadriyatlar: Birinchi falsafiy jihat, millat qadriyatlarni yangi texnologiyalar, siyosiy tizimlar va ijtimoiy o'zgarishlarga muvofiq yangilashni ma'nosiz qilish imkoniyatlarini o'rganishga va amalga oshirishga intiladi. Bu jihatda, millat qadriyatlarni asrash modernizatsiya jarayonini o'tkazish, mamlakatni boshqa davlatlarning progressiv texnologiyalariga mos ravishda rivojlantirishga qaratiladi.

2. Madaniy qadriyatlar: Boshqa falsafiy jihat, millat qadriyatlarni madaniy ko'lamda o'zgarishlarni o'rganish, qadriyatlar orasidagi farqni tushuntirish va birlashtirishni xohlaydi. Bu jihatda, mazhabi va madaniy ta'sirlarni tanishish, ularning alohida qiymatlarini muhofaza qilish, va umumiy manfaatlar uchun o'zaro ishonchli munosabatlarni rivojlantirish muhimdir.

3. Globalizatsiya va millat qadriyatlarni asrash: Boshqa bir perspektiva, globalizatsiya va uning millat qadriyatlariiga olib kelgan ta'sirini o'rganish bilan ham muhimdir. Globalizatsiya, o'zaro aloqalar va iqtisodiy munosabatlarni yanada kuchaytiradi, shuningdek, millat qadriyatlarning o'zlarini saqlashda va boshqarishda qilgan xizmatlarini oshiradi. Bu jihatdan, millat qadriyatlarni asrashning falsafiy jihatlarini o'rganish, ularning globalizatsiya jarayonida o'zlarini o'zgartirish, saqlash va rivojlantirish imkoniyatlarini tushuntirishni o'z ichiga oladi.

4. Demokratiya va inson huquqlari: Millat qadriyatlarni asrashning bir qismini tashkil etadigan boshqa bir jihat, demokratik qiyosiyot, inson huquqlari va adolatga oid falsafiy muzokaralardir. Bu, millat qadriyatlarni o'zlarining o'ziga xos shakl va usullarda demokratik tizimga o'tkazish, inson huquqlarini muhofaza qilish va adolatni amalga oshirishga qaratilgan jihatdir.

Bu mazmunlardan tashqari, millat qadriyatlarni asrashning falsafiy jihatlarini tahlil qilish, har bir mamlakatning o'zining tarixi, ijtimoiy-shaxsiy sharoitlari va rivojlanishi o'ziga xosdir. Bu jihatda o'zaro tushunchali, muhofazali va o'zaro foydali o'zgarishlarni o'rganish va amalga oshirishga intiladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Boboqulova X.E. Milliy o'zlikni anglashdan milliy tiklanish sari ijtimoiy yuksalish. UzMU xabarları. [1/11/1], 2023



2. Ziyo Ko'kalp. Turkchilik asoslari // O'zbegim. –T.: Vatan, 1992. 30-bet
3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. "Faylasuflar jamiyati" Toshkent.: 2004.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>

